

№6, 2022 y. 13 yanvar

Uzumchilik va vinochilik:
xalqaro bozor

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022



"Uzumchilik bu – xalqimizning asrlar davomidagi milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g'ururi va daromad manbai hisoblanadi. Uzum xalqimizning turmush tarzi va urf-odatlarini bilan bevosita bog'lanib ketgan"

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M. Mirziyoev*

**«Uzumchilik va vinochilik: xalqaro bozor»
dayjesti. - T.: 2022. 20 b.**

«Uzumchilik va vinochilik: xalqaro bozor» dayjesti O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi tomonidan tayyorlangan.


Mualliflar jamoasi:

Abduraxmonov I.Y.
Turdikulova Sh.O'.
Abduvaliyev A.A.
Musayeva R.A.
Barbu G.F.

Texnik muharrir:

Rayimjonov X.G'.

© O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi , 2022 y.



Uzum - jahon bozori

2020 yilda uzum bozori 189,19 mlrd AQSh dollariga baholangan va 2021-2026 yillardagi prognoz davrida bozorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,1% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda [1].

Tarmoq ekspertlarining bahosiga ko'ra, jahon uzum bozorining o'sishi yiliga 2-3% ni tashkil etadi va 2025 yilga borib 89,1 mln. tonnaga yetadi [2].

2020 yil uzum ishlab chiqaruvchilar va eksportchilar uchun unchalik qulay bo'lmadi. Ko'plab yetkazib berishlar dunyo bo'ylab to'xtatildi. Hosil yig'im-terimining kechikishi uzumning sifatiga ta'sir qilib, talabga ham ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqaruvchilar uchun cheklovlar, ishchi kuchining yetishmovchiligi va chet elda uzumga bo'lgan talabning pasayishi asosiy muammolardan biri bo'ldi. Eksportchilarning so'zlariga ko'ra, Buyuk Britaniya va Germaniya supermarketlarida uzumga bo'lgan talab keskin tushib ketdi.



Tok novdalari uchun ajratilgan jahon maydoni

Uzumchilik va vinochilik xalqaro tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda tok novdalari uchun ajratilgan jahon maydoni (vino va sharbatlarni ishlab chiqarish, xo'raki uzum va mayiz yetishtirish uchun) 7,3 mln gektar baholanmoqda.

Uzum - jahon bozori

Mamlakat	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2020 y. jahonda %
Ispaniya	975	968	972	966	961	13.1%
Fransiya	786	788	792	794	797	10.9%
Xitoy	770	760	779	781	785	10.7%
Italiya	693	699	701	713	719	9.8%
Turkiya	468	448	448	436	431	5.9%
AQSh	439	434	408	407	405	5.5%
Argentina	224	222	218	215	215	2.9%
Chili	209	207	208	210	207	2.8%
Portugaliya	195	194	192	195	194	2.7%
Ruminiya	191	191	191	191	190	2.6%
Eron	168	153	167	167	167	2.3%
Hindiston	131	147	149	151	151	2.1%
Avstraliya	145	145	146	146	146	2.0%
Moldaviya	145	151	147	143	140	1.9%
Janubiy-Afrika Respublikasi	130	128	123	122	122	1.7%
O'zbekiston	131	111	108	112	112	1.5%
Gresiya	105	106	108	109	109	1.5%
Germaniya	102	103	103	103	103	1.4%
Rossiya	88	90	93	96	96	1.3%
Afg'oniston	89	94	94	96	96	1.3%
Braziliya	86	84	82	81	80	1.1%
Misr	83	84	80	79	79	1.1%
Aljir	76	75	75	66	66	0.9%
Bolgariya	64	65	67	67	66	0.9%
Vengriya	68	68	69	67	65	0.9%
Boshqa mamlakatlar	816	812	811	827	827	11.3%
Jami dunyoda:	7379	7326	7333	7342	7331	100.0%

1-jadval. – Asosiy vinochilik mamlakatlarining uzumzorlar maydoni (ga) [3].

Umumiy maydondan organik uzumzorlarning ulushi

Bugungi kunda uzumzorlar ostiga maydonlarda yetishtirishning ekologik usullari qo'llanilmoqda. "Yashil" uslublardan biri - organik yetishtirish.



Tok novdasini organik yetishtirish — bu Yevropa Ittifoqi ko'rsatmalariga muvofiq uzum yetishtirishning muayyan amaliyotlari qo'llaniladigan uslub. Bu amaliyotlar birinchi navbatda o'g'itlarga tegishli. Tuproq unumdorligini qo'llab-quvvatlash uchun foydalanishga ruxsat berilgan o'g'itlar o'simlik va hayvon qoldiqlaridan ishlab chiqarilishi kerak.

Kasalliklar va zararli hasharotlardan himoya qilish va davolash tasdiqlangan vositalar va kimyoviy birikmalar, mikrobiologik preparatlar va tok novdasi dushmanlariga qarshi kurashuvchi foydali hasharotlarni qo'llash bilan amalga oshirilishi kerak [4]. Ushbu yondashuvlarni qo'llash orqali vinochilar "ishlab chiqarish va kelib chiqishi jihatidan organik vinolar"ni ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Alohida olingan mamlakatda uzumzorlar ostida umumiy maydondan organik uzumzorlarning ulushi nuqtai nazaridan, ushbu ko'rsatkich bo'yicha Italiya birinchi o'rinda turadi, bu yerda uzumzorlarning umumiy maydoniga 15% organik ekish to'g'ri keladi, undan keyingi o'rinlarni Fransiya (14%) va Avstriya (14%) egallagan. 8% uzumzorlar maydoni organik sifatida sertifikatlangan Meksika top-10 ro'yxatiga kirgan yagona yevropalik bo'lmagan mamlakatga aylandi [5].

Uzum ishlab chiqarish va iste'mol qilish

Dunyoda ishlab chiqariladigan barcha uzumlar umumiy hajmining 80-90% vino, sharbatlar va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash va tayyorlash uchun ishlatiladi, 10% gacha uzum yangi uzilgan ko'rinishda iste'mol qilinadi va 5-6% quritish uchun ishlatiladi [6].

Uzumning butun dunyo bo'ylab yo'nalishlar bo'yicha aniq taqsimlanishini belgilash qiyin: ba'zi texnik navlarni yangi uzilgan ko'rinishda iste'mol qilish uchun ishlatilishi mumkin, ko'plab xo'raki navlari esa vino ishlab chiqarish va quritish uchun ishlatilishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda aholi orasida iste'mol qilish uchun talab katta bo'lgan urug'siz mayiz navlari (kishmish) vinochilikda ishlatiladi.



Bularning barchasi ham uzum yetishtiriladigan hududning tabiiy xususiyatlari, ham ma'lum bir mamlakatda shakllangan an'analarga bog'liq ravishda belgilanishi mumkin. Masalan, AQShning asosiy uzum ishlab chiqaruvchi Kaliforniya shtatida (92%) hosilning deyarli yarmi (45%) urug'siz navlar (mayiz, kishmish) bo'lib, ular

quritish uchun eng yaxshi xom ashyo hisoblanadi.

An'analar va iqlim shart-sharoitlari tufayli, Turkiya, Eron va Yaqin Sharqda uzum asosan yangi uzilgan ko'rinishda iste'mol qilish va quritish uchun yetishtiriladi. G'arbiy Yevropaning yetakchi uzum ishlab chiqaruvchi mamlakatlari (Fransiya, Italiya va Ispaniya)da assortimentning asosini vino ishlab chiqarishga qaratilgan yuqori sifatli texnik navlar tashkil etadi.





Uzum ishlab chiqarish va iste'mol qilish

Dunyoda sanoat miqyosida xo'raki uzum navlarini yetishtirish faqat o'tgan asrning 30-yillarida boshlangan. Dunyo bo'ylab ishlab chiqarilgan xo'raki uzumning 55% Osiyo va Afrikadan qisman import qilish bilan asosan Yevropa mamlakatlarid iste'mol qilinadi.




Dunyo bo'yicha xo'raki uzumning aholi jon boshiga o'rtacha yillik iste'moli 1,5-2 kg, Italiya va Bolgariyada 10-20 kg, Ispaniya va Vengriyada 5-10 kilogrammni tashkil etadi. Fransiya va AQShda aholi jon boshiga o'rtacha yillik iste'mol 1 kg uzumdan kamroqni tashkil etadi.

Yangi uzilgan uzumning jahon eksporti/importi


2020 yilda yangi uzilgan uzumning asosiy eksport qiluvchilari quyidagilar bo'lgan [7]:

- Xitoy - jahon eksportining 13% (1,21 mlrd AQSh dollari)
- Chili - 11% (1,02 mlrd AQSh dollari)
- Peru - 10,7% (991 mln AQSh dollari)
- Italiya - 8,98% (832 mln AQSh dollari)
- AQSH - 8,88% (822 mln AQSh dollari)



1-rasm. - 2020 yilda yangi uzilgan uzumning asosiy eksportchilari

Yangi uzilgan uzumning jahon eksporti/importi



2-rasm. 2020 yilda yangi uzilgan uzum eksportining eng yirik savdo oqimlari

Xitoy asosan yetishtirish texnologiyalarini yaxshilash va mahsulot sifatini oshirish natijasida so‘nggi yillarda uzum eksporti hajmining sezilarli o‘shishini namoyon qildi [8].


Chili uzum ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari jahon bozoriga o‘z turli tarzdagi takliflarini diversifikatsiya qilishga sarmoya kiritishda davom etmoqdalar. Chili savdoni osonlashtirishga qaratilgan faol reklama faoliyati hisobiga bozorda faol ishtirok etishni saqlab qoldi [9].

Peru imzolangan savdo shartnomalari, tadbirkorlar va Senasa (Milliy hayvonlar salomatligi va qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifati xizmati) ishi tufayli hajmi bo‘yicha uzumning uchinchi yirik eksportchisiga aylandi, natijada uzum ko‘proq bozorlarga chiqish imkoniga ega bo‘ldi [10].

Yangi uzilgan uzumning jahon eksporti/importi


2020 yilda yangi uzilgan uzumning asosiy import qiluvchilari quyidagilar bo'lgan:

- AQSh - dunyo importining 19,3% (1,88 mlrd AQSh dollari)
- Germaniya - 8,2% (801 mln AQSh dollari)
- Niderlandiya - 8,18% (799 mln dolla)
- Buyuk Britaniya - 6,97% (680 mln AQSh dollari)
- Xitoy - 6,58% (642 mln AQSh dollari)
- Gonkong - 5,61% (548 mln AQSh dollari)



3-rasm. - 2020 yilda yangi uzilgan uzumning asosiy importchilari

Yangi uzilgan uzumning jahon eksporti/importi



4-rasm. 2020 yilda yangi uzilgan uzum importining eng yirik savdo oqimlari

Qo'shma Shtatlar dunyodagi eng yirik uzum importchisi va o'sib borayotgan vino bozori hisoblanadi, ichki talab mamlakatning vino ishlab chiqarishidan oshib ketadi. Deyarli barcha AQShning 50 ta shtatlari vino ishlab chiqaradi; ammo AQSh vino ishlab chiqarishining katta qismi Kaliforniya va Vashington hisobiga to'g'ri keladi.

AQShning geologik va iqlim sharoiti baland tog' kontinental iqlim va tuman bilan qoplangan qirg'oq bo'yi hududlar kabi ana shunday uzum yetishtirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlagan [11].

Germaniya bozori juda raqobatbardosh va import uchun ochiq hisoblanadi. Bundan tashqari, mamlakatda noyob iqlim sharoitlari mavjud. Bu yerda keskin harorat o'zgarishi yo'q, bo'ron shamollari bo'lmaydi, qish asta-sekin kirib keladi. Ko'pincha vodiylarda hosil bo'ladigan tuman uzumning sekin yetilib pishishiga imkon beradi [12].

Niderlandiya uzum importi uchun muhim logistika markazi hisoblanadi. Bu yerdan katta hajmi Yevropaning qolgan qismiga qayta eksport qilinadi.

Uzum yetkazib berishlarining taqvimi

Uzumning eksport va import hajmining asosiy omillaridan biri uning mavsumiyligi hisoblanadi [13].


Uzum yetkazib beruvchilar	Nomi	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
	Fransiya													
	Italiya													
	JAR													
	Hindiston													
	Misr													
	O'zbekiston													
	Turkiya													
	Chili													
	Moldova													
	Braziliya													
	Xitoy													
	Tojikiston													
Qirg'iziston														

2-jadval. – Uzum yetkazib berish taqvimi

Vinochilik – jahon bozori

Butun dunyo bo'ylab talabning ortishi munosabati bilan uzum bozori keyingi yetti yillik davr mobaynida iste'mol qilishning o'sish tendensiyasini saqlab qolishi kutilmoqda. 2018 yildan 2025 yilgacha yetti yillik davr mobaynida o'rtacha yillik o'sish sur'ati + 1,3% bilan bozor ko'rsatkichlari joriy o'sish tendensiyasini saqlab qoladi. Prognozlarga ko'ra, bunday tendensiya 2025 yilning oxirigacha 83 mln. tonnagacha bozor hajmlarining o'sishiga olib keladi [14].

Uzumchilik va vinochilik xalqaro tashkiloti (OIV) baholariga ko'ra, 2020 yilda jahon vino ishlab chiqarishi taxminan 258,4 mln gektolitri tashkil etdi. Hisobot yilida ishlab chiqarish darajasi 2019 yilga nisbatan 0,9%ga o'sishning unchalik katta bo'lmagan sur'atlarini ko'rsatib, hozircha o'rtacha ko'rsatkichdan past belgida qolmoqda. Ishlab chiqarishning past darajasi asosan iqlim sharoitlarining o'zgarishi va jahon vino bozorida yuqori darajada volatillik va noaniqlikni yarataduvchi COVID-19 pandemiyasining ta'siri bilan bog'liq [15].



5-rasm. Jahon vino ishlab chiqarishi, mln gektolitri

Vinochilik – jahon bozori

Mamlakat	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Italiya	50.0	50.9	42.5	54.8	47.5	47.2
Fransiya	47.0	45.4	36.4	49.2	42.1	43.9
Ispaniya	37.7	39.7	32.5	44.9	33.7	37.5
Germaniya	8.8	9.0	7.5	10.3	8.2	8.9
Portugaliya	7.0	6.0	6.7	6.1	6.5	6.5
Ruminiya	3.6	3.3	4.3	5.1	3.8	3.6
Vengriya	2.6	2.5	2.5	3.6	2.4	2.9
Avstriya	2.3	2.0	2.5	2.8	2.5	2.7
Gresiya	2.5	2.5	2.6	2.2	2.0	2.0
Bolgariya	1.4	1.2	1.2	1.1	0.9	0.9
Xorvatiya	1.0	0.8	0.7	1.0	0.7	0.7
Sloveniya	0.6	0.5	0.5	0.9	0.8	0.6
Chexiya Respublikasi	0.8	0.6	0.6	0.7	0.5	0.6
Slovakiya	0.3	0.3	0.3	0.4	0.3	0.3
Kipr	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1
Lyuksemburg	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1	0.1
Malta	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
ES-27	166	165	141	183	152	159

3-jadval. - Jahon vino ishlab chiqaruvchi mamlakatlar, 2015-2020 yy., mln gektolitr [16]

Jahon vino iste'moli

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi vinoga bo'lgan talab bo'yicha yetakchi hisoblanadi, Xitoy esa mintaqada bozorga hukmronlik qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, Xitoyda qizil vinoni iste'mol qilish an'ana tusiga kirib bo'lgan, chunki qizil rang mamlakatda omadli hisoblanadi. Ushbu omil tufayli Xitoy Fransiya va Italiyaga keskin raqobatni tashkil etgan holda qizil vino iste'mol qilishning yetakchi bozorlardan biri hisoblanadi. Avstraliya Osiyo-Tinch okeani mintaqasida vino iste'mol qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi, undan keyingi o'rinda Yaponiya bormoqda [17].

Bundan tashqari, Hindiston vino iste'mol qilish nuqtai nazaridan eng tez o'sayotgan mamlakat hisoblanadi va taxminan 7% o'sish sur'atlarni qayd etdi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida vinoning boshqa potensial iste'molchilaridan Filippin, Janubiy Koreya va Vetnam ajralib turadi. Gonkongda vino importiga soliq yo'q, bu bozor uchun harakatlantiruvchi omil hisoblanadi.



Braziliya va Argentina vino bozorining kelajkdagi o'sish istiqbollarini aks ettiruvchi boshqa muhim mamlakatlardir. Bu ikki mamlakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari, ayniqsa, Braziliya bilan holatda, vinoni iste'mol qilish madaniyatini ilgari surishga maqsad qilgan Expand Importadora va Interfood Importação kabi ana shunday yirik importchilar tomonidan o'tkaziluvchi marketing kampaniyalari bilan birga o'sib borayotgan o'rta sinf hisoblanadi.

Vino jahon eksporti/importi


2020 yilda barcha mamlakatlardan eksport qilingan vinoning jahon sotuvlari 34,1 milliard AQSh dollarini tashkil qildi, bu vino yetkazib berish 32,5 milliard AQSh dollariga baholangan 2016 yildan barcha eksport qiluvchi mamlakatlar uchun o'rtacha 5% ga yuqoridir [18].

Yillik hisoblab chiqarishda vino eksporti 2019 yildan 2020 yilgacha qiymat ifodasida -4,8% ga kamaydi.

5 yirik vino sotuvchisi (Fransiya, Italiya, Ispaniya, Avstraliya, Chili) hisobiga xalqaro bozorlardagi jahon sotuvlarining 70,8% to'g'ri keladi.

Qit'alar orasida Yevropa davlatlari 2020 yil davomida eksport qilingan vinoni vino jahon eksportining 73,7% yoki eng yuqori dollar qiymati - 25,2 milliard AQSh dollari miqdorida sotishdi. Avstraliya va Yangi Zelandiya boshchiligidagi Okeaniyada vinoning xalqaro sotuvlari 10%, undan keyin Meksikani hisobga olmaganda Lotin Amerikasida 7,7% ni tashkil etdi.

Shimoliy Amerika eksportchilari 4% vinoning xalqaro sotuvlarini ta'minlashdi, shu bilan bir vaqtda Osiyo afrikalik yetkazib beruvchilarning 1,9% vino sotuvlaridan o'zib ketib, 2,7% ni yetkazib berdi.



6-rasm. - 2020 yil davomida eng yuqori dollar qiymatiga vinoni eksport qilgan 15 ta mamlakat (% vino eksporti)


Vino jahon eksporti/importi

2020 yilda import vinosining global xaridlari 34,9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Umuman olganda barcha xaridor mamlakatlar uchun import vinosining qiymati vino xaridlari 32,9 milliard AQSh dollariga baholangan 2016 yildan o'rtacha 6% ga oshdi [19].

Yillik hisoblab chiqarishda vino xalqaro xaridlari 2019 yildan 2020 yilgacha qiymat ifodasida -5,2% ga kamaydi. Dunyodagi beshta yirik vino importchilari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada va Xitoy hisoblanadi. Birgalikda bu mamlakatlar 2020 yilda import qilingan barcha vinoning deyarli yarmi (48,8%)ni sotib olishdi .

Qit'a nuqtai nazaridan, Yevropa davlatlari 2020 yil davomida eng yuqori dollar qiymatida import qilingan vinoni 18,8 milliard AQSh dollari yoki umumjahon hajmning 54% miqdorida sotib olishdi. Shimoliy Amerikadan import qiluvchilar 23,1% ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinda turishibdi, shu bilan birgalikda 17,2% jahon vino importi Osiyodagi xaridorlarga yetkazib berildi.

Kichikroq foiz Meksikadan tashqari, ammo Karib havzasini qo'shgan holda Lotin Amerikasi (2,4%), Avstraliya va Yangi Zelandiya boshchiligida Okeaniya (2,3%) va Afrika (1,1%)ga yetkazib berildi.



7-rasm. - 2020 yil davomida eng yuqori dollar qiymatiga vinoni import qilgan 15 ta mamlakat (% vino importi)

Eng yirik vino ishlab chiqaruvchi kompaniyalar



jahon hajmning 3% dan kam bo'lgan qismini ishlab chiqaradi [20].

Concha y Toro (Chili) Janubiy Amerikadagi eng yirik vino ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Bugungi kunda kompaniya 9 000 gektar tokzor maydoniga ega. Uning portfoliosiga nafaqat mashhur chililik Cono Sur, Casillero del Diablo va Sunrise, balki kaliforniyalik Fetzer va argentinalik Trivento ham kiradi.



Gallo (AQSH) nomli Amerika kompaniyasiga tegishli yana bir brend. Oilaviy korxonada 1933 yilda Kaliforniyada tashkil etilgan. Bugungi kunda Modestodagi ularning asosiy vino zavodlari shahar ichidagi kichik bir shahar kabi ko'rinadi.



Bugungi kunda vino zavodi **Château Changyu (Xitoy)** Moser XV loyihasida mashhur Avstriya vino ishlab chiqaruvchi Lens Mozer bilan hamkorligi va Xitoyning Lyaonin viloyatida "muz vino" deb atalmish "aysvayn"ni keng ko'lamli ishlab chiqarishi bilan mashhur. Yiliga 15 millionga yaqin keyslari, ya'ni 180 millionga yaqin butilka ishlab chiqariladi.

Yellow Tail (Avstraliya) – dunyodagi eng muvaffaqiyatli vino brendlaridan biri. Yorliqdagi to'q sariq rangli vallabi bilan butilkani bugungi kunda butun dunyo bo'ylab 50dan ortiq mamlakatlarning supermarketlarida topish mumkin.

1. Grapes market – growth, trends, covid-19 impact and forecasts (2021-2026) // <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/grapes-market>
2. Аналитический обзор мировой торговли на рынке винограда // <https://epauzb.uz/post/analiticheskiy-obzor-mirovoy-torgovli-na-rynke-vinograda?lang=ru>
3. State of the world vitivinicultural sector in 2020 // <https://www.oiv.int/public/medias/7909/oiv-state-of-the-world-vitivinicultural-sector-in-2020.pdf>
4. Органическое виноградарство // <https://www.vaeni-naoussa.com/ru/wine-guide/biological.htm>
5. Мировая площадь органических виноградников увеличивается // <https://drinks.ua/news/mirovaja-ploshhad-organicheskikh-vinogradnikov-uvlechivaetsja/>
6. Grapes Production and Consumption in the World // <https://uzwine.uz/main.php?lang=en&page=grapeinworld>
7. Торговый партнёр: Весь мир // https://trendeconomy.ru/data/commodity_h2/080610
8. Устойчивый рост китайского экспорта поддерживает мировой рынок винограда // <https://www.indexbox.ru/news/Ustojchivyj-rost-kitajskogo-eksporta-podderzhivaet-mirovoj-rynok-vinograda/>
9. Chilean Grapes Maintain Leading Position in China Market // <https://www.producereport.com/article/chilean-grapes-maintain-leading-position-china-market>
10. Peru was world's second-largest table grape exporter in 2020 - industry body // <https://www.freshfruitportal.com/news/2021/08/11/peru-was-worlds-second-largest-table-grape-exporter-in-2020-industry-body/>
11. Grapes Market – Growth, Trends, COVID-19 Impact and Forecasts (2021-2026) // <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/grapes-market>
12. 10 крупнейших стран-импортеров вина в мире // <https://www.vesti.ru/finance/article/2417419>
13. Сезонные окна возможностей // http://agrolead.org/wp-content/uploads/2018/12/%D0%BE%D0%BA%D0%BD%D0%B0_final.pdf
14. Мировой рынок винограда 2018 // <https://vinograd.info/spravka/spravka/mirovoy-rynok-vinograda-2018.html>
15. Вино // <https://mcx.gov.ru/upload/iblock/457/45733ada0d937426935a4fbd39efd18f.pdf>
16. 2020 wine production // <https://www.oiv.int/public/medias/7541/en-oiv-2020-world-wine-production-first-estimates.pdf>
17. Wine market – growth, trends, COVID-19 impact, and forecasts (2021-2026) // <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/wine-market>
18. Wine Exports by Country // <https://www.worldstopexports.com/wine-exports-country/>
19. Top Wine Importing Countries // <https://www.worldstopexports.com/top-wine-importing-countries/>
20. Крупнейшие винные бренды мира // <https://sw.ru/articles/krupneishie-vinnye-brendy-mira>



Ўзбекистон Республикаси Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022